

VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning turlicligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar–mart holatiga)

	mlrd. so'm	O'sish surati, %	Jamiga nisbatan, %
Xizmatlar-jami	7 363,8	100,0	112,2
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	375,2	5,1	110,9
moliyaviy xizmatlar	1 705,2	23,2	123,0
transport xizmatlari	1 387,9	18,8	107,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 296,5	17,6	109,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	191,0	2,6	106,7
savdo xizmatlari	2 121,4	28,8	109,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	168,2	2,3	108,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	266,6	3,6	108,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	148,7	2,0	104,0
ijara xizmatlari	145,8	2,0	116,6
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	193,7	2,6	108,7
shaxsiy xizmatlar	365,2	5,0	110,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	68,7	0,9	108,4
boshqa xizmatlar	226,2	3,1	114,0


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (28,8%), moliyaviy xizmatlar (23,2%), transport xizmatlari (18,8%) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari texnik

sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %), ijara xizmatlari (2,0 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,0 %) tashkil etgan.


2024- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar tarkibi

(jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo‘lganlar)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 28,8 %), moliyaviy xizmatlar (23,2 %), transport xizmatlari (18,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yil yanvar-mart oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so‘m




Joriy yilning yanvar - mart oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 2 121,4 mlrd. so‘m, moliyaviy xizmatlar 1 705,2 mlrd.so‘m, transport xizmatlari 1 387,9 mlrd.so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 375,2 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

2024- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2024-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 191,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 30,5 mlrd.so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 160,4 mlrd.so'mni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-mart oylarida transport bo'yicha xizmatlar tarkibi,% da



2024-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1 387,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1 296,4 mlrd.so'mni, jami transport xizmatlarining 93,4 %ini tashkil etadi.

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish


(2024- yilning yanvar-mart oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2023- yil yanvar-mart holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so‘m	2023-yil yanvar-mart holatiga nisbatan %da
Farg‘ona viloyati	7 363,8	112,2	100,0	1 809,1	109,9
<i>shaharlar:</i>					
Farg‘ona	2 114,8	112,4	28,7	6 555,5	109,8
Qo‘qon	1 077,2	112,6	14,6	3 488,3	111,0
Quvasoy	160,6	112,2	2,2	1 584,2	109,6
Marg‘ilon	572,7	112,0	7,8	2 255,5	109,0
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	389,1	112,1	5,3	1 700,0	109,8
Qo‘shtepa	228,2	111,9	3,1	1 093,2	109,5
Bag‘dod	214,3	111,0	2,9	917,2	108,6
Buvayda	326,0	112,6	4,4	1 315,6	110,0
Beshariq	226,7	112,4	3,1	932,1	110,4
Quva	264,3	111,7	3,6	956,6	109,6
Uchko‘prik	307,5	112,5	4,2	1 270,8	110,0
Rishton	225,0	112,3	3,1	1 034,8	109,8
So‘x	98,5	111,5	1,3	1 172,3	109,1
Toshloq	246,0	111,8	3,3	1 128,1	110,1
O‘zbekiston	213,7	112,0	2,9	902,4	109,3
Farg‘ona	248,8	112,1	3,4	1 120,8	109,9
Dang‘ara	205,1	112,9	2,8	1 155,1	110,1
Furqat	125,7	111,7	1,7	986,6	109,3
Yozyovon	119,6	111,5	1,6	997,1	109,1

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Dang‘ara tumaniga (112,9 %) va Qo‘qon shahriga (112,6 %) to‘g‘ri keldi. Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Farg‘ona shahri (28,7 %), Qo‘qon shahri (14,6 %), Marg‘ilon shahri (7,8 %), Oltiariq (5,3 %) va Buvayda (4,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So‘x (1,3 %), Yozyovon (1,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.


2024- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo'lgan hududlar

(jamiga nisbatan %da)



2024-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 809,1 ming so'mga teng bo'ldi. Uning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 109,9 %ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (6 555,5 ming so'm), Qo'qon (3 488,3 ming so'm) va Marg'ilon (2 255,5 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (1 584,2 ming so'm), Oltiariq (1 700,0 ming so'm) va Buvayda (1 315,6 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi O'zbekiston tumanida (902,4 ming. so'm) kuzatildi, o'sish sur'ati 109,3 %ni tashkil etdi.